

6- Laboratoriya ishi

Mavzu: Maktab yoshidagi qiz bolalar koftasi (bluzka) konstruksiyasini kompyuter dasturi orqali qurish.

Ishni bajarishdan maqsad: Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar koftasi (bluzka) konstruksiyasini chizish uchun o'lchamlar olish, hisoblash va chizish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish va yubka konstruksiyasini kompyuter dasturi orqali qurish.

Kerakli asbob-uskunalar: komputer, chizg'ichlar to'plami; moda jurnallari; qog'oz va qalam; texnologik xarita; mantimetrli lenta, ruletk; texnik shartlar yoki me'yoriy hujjatlar (GOST); qaychi, kalka qog'oz; gazlama namunalari katologi.


ISHNI BAJARISH TARTIBI:

Maktab yoshidagi qiz bolalar bluzkasini loyihalash.

Bluzkalar bichim, shakli jihatidan ko'ylakning yuqori qismiga o'xshaydi. Bluzkalar taqilmasi old tomonda yoki ort bo'lakda bo'lishi mumkin. Ularning yenglari uzun yoki kalta, yeng uchlari manjetli, manjetsiz, rezinkali bo'lishi mumkin. Bluzkalar yubka ustiga tushirib yoki yubka ichiga kiritib kiyiladi. Yubka ichiga kiritib kiyiladigan bluzkalarning bel qismida vitochkalar tikilmaydi. Bunday bluzkalarning etagi yopiq qirqimli bo'lib universal mashinada tikiladi. Bluzka yubka ustiga tushirilib kiyiladigan bo'lsa etagi maxsus mashinada bukib tikilishi mumkin (50-rasm). Bluzka chizmasini chizish uchun quyidagi o'lchovlar kerak bo'ladi:

$BnYaA = 18 \text{ sm}$
 $KYaAI = 41 \text{ sm}$
 $KYaAII = 44 \text{ sm}$
 $BIYaA = 35 \text{ sm}$

$OrK = 17 \text{ sm}$
 $OIK = 18 \text{ sm}$
 $KM = 8 \text{ sm}$
 $KB = 25 \text{ sm}$



50-rasm. Bluzka modellari.

$BkYaA = 48 \text{ sm}$
 $OlbU = 43 \text{ sm}$

$YelK = 13 \text{ sm}$
 $OrbU = 40 \text{ sm}$

$$YeU = 35—58 \text{ sm}$$

$$YelA = 27 \text{ sm}$$


Hamma razmerlar uchun kerakli qo'shimchalar: $Qk = 5 \text{ sm}$: shundan $QorK = 1,5 \text{ sm}$, $QolK = 1 \text{ sm}$, $Qyen.o'm = 2,5 \text{ sm}$. $QyelA = 5 \text{ sm}$.

Bluzka asosining to'r qismi.

To'r qismi bluzka loyihasining bo'yi va eni bo'ylab asosiy o'lchamlarini belgilab beradi. To'g'ri burchak chizib unga Bn nuqta qo'yiladi (51-rasm).

1. $BnBl = OrbU + 1 = 40 + 1 = 41 \text{ sm}$ (bel uzunligi).
 2. $Bn Bn1 = KYaAII + QK = 44 + 5 = 49 \text{ sm}$ (bluzka kengligi).
 3. $Bl Bk = OrbU : 2 - 1 = 40 : 2 - 1 = 19 \text{ sm}$ (bo'ksa chizig'i).
 4. Bn , $Bn1$, Bk va $Bk1$ nuqtalar orqali to'g'ri to'rtburchak chiziladi.
 5. $BnK = (KYaAII + QK) : 2 = (44 + 5) : 2 = 24,5 \text{ sm}$ (ko'krak chizig'i).
 6. Ko'krak bel chizig'idan gorizonttal o'tkaziladi kesishgan joylariga $K1$, $Bl1$ nuqtalar belgilab qo'yiladi.
 7. $Bn Bn2 = OrK + QorK = 17,0 + 1,5 = 18,5 \text{ sm}$ (orqa bo'lak kengligi)
 8. $Bn1 Bn3 = OlK + QolK = 18 + 1 = 19 \text{ sm}$ (old bo'lak kengligi).
 9. $K2 K3 = YelA : 3 + Qyen.o'm = 27 : 3 + 2,5 = 11,5 \text{ sm}$ (yeng o'mizi kengligi).
 10. $K2 K4 = K2 K3 : 2 = 11,5 : 2 = 5,7 \text{ sm}$ (yon chiziq).
 11. $K4$ nuqtadan pastga bo'ksa chizig'i bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi va kesishgan nuqta $Bk2$ bilan belgilanadi.
 12. $K2$ va $K3$ nuqtalardan yuqoriga bo'yin chizig'i bilan kesishguncha vertikal chiziqlar o'tkaziladi va kesishgan nuqtalar mos ravishda $Bn2$ va $Bn3$ bilan belgilanadi.
- Orqa bo'lak chizmasi
13. $Bn Bn4 = BnYaA : 3 + 1$ (hamma razmer uchun) $= 18 : 3 + 1 = 7 \text{ sm}$ (bo'yin o'mizi kengligi).
 14. $Bn Bn5 = Bn Bn4 : 3 = 7 : 3 = 2,3 \text{ sm}$ (bo'yin o'mizi chuqurligi).
 15. $Bn4$, $Bn5$ nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
 16. Yelka nuqtasi ikkita radiusning kesishishidan aniqlanadi: $R1 = BlYe = OrbU + 1 = 40 + 1 + 1,5$ (yelka yostiqchasi uchun) $= 42,5 \text{ sm}$ (yelka nuqtasining holatini aniqlash) $R2 = Bn4Ye = YelK + vitochka \text{ kengligi} = 13 + (1,5 - 3) = 15 \text{ sm}$ (yelka uzunligi).
 17. $Bn4v = Bn4Ye : 3 = 15 : 3 = 5 \text{ sm}$ (vitochkaning boshlanish nuqtasi).
 18. v nuqtadan pastga bo'ksa chizig'i bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi.
 19. $vv1 = 8—10 \text{ sm}$ (vitochka uzunligi).
 20. $vv = 0,5 \text{ sm}$ (yelka chizig'ini to'g'riligini belgilash).
 21. $vv2 = 1,5—3$ (vitochka kengligi).
 22. $v1 v2 = v1 v = 8,5—10,5 \text{ sm}$ (vitochka tomonlari).
 23. $Bn4 v1$ va $v2Ye$ nuqtalar birlashtiriladi.
 24. $K2b = K2Ye : 3$ (yordamchi nuqta).
 25. $K2O = 0,2 \times K2 K3 + 0,5 = 0,2 \times 11,5 = 2,3 \text{ sm}$ (bissektrissa).
 26. Ye , b , O , $K4$ nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi. Old bo'lak chizmasi (51-rasm)

27. $B_{11} B_{n6} = O_{lbU} + 1 = 43 + 1 = 44$ (old bo'lakning beldan bo'yin asosigacha bo'lgan oraliq).
28. $B_{n6} B_{n8} = B_n B_{n4} = 7$ sm (bo'yin o'mizi kengligi).
29. $B_{n6} B_{n7} = B_n Y_{aA}:2-1 = 18:2-1 = 8$ sm (bo'yin o'mizi chuqurligi).
30. B_{n8}, B_{n7} nuqtalar tutashtirilib ularning o'rta qismi topiladi perpendikulyar o'tkazilib 1,5 sm qiymati qo'yiladi.
31. $B_{n8}, 1,5$ sm, B_{n7} nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.
32. $K_1 K_5 = KM = 8$ sm (ko'krak markazi).
33. $B_{n8} K_5$ nuqtalar chizg'ich bilan tutashtiriladi.
34. $B_{n8} K_6 = 25$ sm (ko'krak balandligi K_6 nuqta ko'krak chizig'ida yotishi undan pastda yoki yuqorida bo'lishi mumkin).
35. $B_{n8} B_{n9} = (KY_{aAII} - KY_{aAI}) \times 2 = (44-41) \times 2 = 6$ sm (ko'krak vitochkasi miqdori)
36. B_{n9} nuqta K_6 nuqta bilan chizg'ich yordamida tutashtiriladi.
37. $B_{n8} K_6 = B_{n9} K_6 = 25$ sm (vitochka tomonlari).
38. Old bo'lakda yelka nuqtasi ikkita radiusning kesishishidan hosil bo'ladi: $R_3 = B_{n10} Y_{e1} = Y_{e1} K = 13$ sm (yelka nuqtasi). $R_4 = B_{11} Y_{e1} = O_{lbU} + 1 + 1,5 = 43 + 1 + 1,5 = 45,5$ sm (yelka nuqtasi).
39. Y_{e1} va B_{n10} nuqtalar chizg'ich bilan tutashtiriladi.
40. $K_3 b_1 = K_3 B_{n3}:4$ (yordamchi nuqtani aniqlash uchun $K_3 B_{n3}$ ning qiymati chizmadan olinadi).
41. $Y_{e1} b_1$ nuqtalar chizg'ich bilan tutashtiriladi va 2 ga bo'linib ichkariga perpendikulyar o'tkaziladi unga 0,5—1 sm qiymat qo'yiladi.
42. $K_3 O_1 = 0,2 \times K_2 K_3 = 0,2 \times 2 = (0,2-0,4) = 2$ sm (bissektrissa).
43. $Y_{e1} 0,5—1$ sm, b_1, O_1, K_4 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi va yeng o'mizi egriligi hosil bo'ladi.



51-rasm. Ayollar bluzkasining chizmasi.